



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-iyul

357-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-iyulda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Issiqxona xo‘jaliklariga xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining 50 foizini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 10-iyuldagi 410-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 326-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Respublikada issiqxona xo‘jaliklarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida rivojlantirish va ularning faoliyatini samarali tashkil etish uchun qulay sharoit yaratish, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish maqsadida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Issiqxona xo‘jaliklari va meva-sabzavotlarni eksport qiluvchi korxonalarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 27-oktabrdagi 567-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Issiqxona xo‘jaliklariga xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining 50 foizini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 10-iyuldagi 410-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-iyuldagi 326-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-iyuldagi 326-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-iyuldagi 410-son qarori bilan: issiqxona xo‘jaliklariga xorijdan jalb qilinadigan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislari ro‘yxatini shakllantirish hamda malakali agronomlar “yashil reyestri”ni yuritish tartibini; issiqxona xo‘jaliklariga xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining 50 foizini qoplash uchun subsidiya ajratish bo‘yicha talab etiladigan hujjatlar, ularni ko‘rib chiqish hamda subsidiya ajratish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish tartibini;

issiqxona xo‘jaliklariga xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilinishi yuzasidan monitoring yuritishni nazarda tutuvchi Issiqxona xo‘jaliklariga xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining 50 foizini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i (Sh.Umaraliyev) manfaatdor tashkilotlar va korxonalar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-iyuldagi 410-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning birinchi o‘rinbosari hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari Sh.Umaraliyev va X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov